

QULOQ SUPRASI NUQSONLARINI BARTARAF ETISHDA O`TKAZILGAN TADQIQOT USULLARI

Jumayev L.R

BDTU xirurgik stomatologiya kafedrasи dotsenti D.Sc.

Hamroyeva K.Sh

BDTU yuz-jag` jarrohligi magistri.

Bemorlarga umumiyl klinik tekshirish usullari (shikoyatlar, anamnez, fizik tekshiruv, umumiyl qon va siydiyl tahlili, qon va siydiyl biokimiyoviy testlari, koagulogramma, qon guruhi va Rh faktorini aniqlash) bilan bir qatorda QS antropometrik o'lchovlari, dopplerografiya va foto hujjatlari o'tkazildi.

Antropometriya

QSni antropometrik o'lchash QS nuqsonining hajmi va shaklini aniqlashning eng oddiy usuli bo'lib, QS rekonstruktsiyasi paytida eng aniq modelni yaratadi. Berilgan usulni jarrohlik aralashuvini rejalashtirish uchun operatsiyadan oldin va jarrohlik aralashuvni natijalarining samaradorligini baholash uchun operatsiyadan keyin qo'lladik. Shu bilan birga, jarohatlangan va sog'lom QS o'lchamlarini o'lchadik hamda operatsiyadan oldin va keyin taqqoslash uchun kartalarda qayd etdik. Antropometrik o'lchovlar uchun lineyka, santimetr lentasi, shtangensirkul va transportir ishlatdik. QSning antropometrik o'lchovlari QSning ventral va dorsal tomondan amalga oshirildi.

Ventral tomondan QS o'lchovlari (1-rasm):

- 1) nuqsonning o'lchami QS - (uzunasiga va ko'ndalang);
- 2) QSning uzunligi helix (b) cho'qqisi chetining chizig'idan quloq lobulening (a) chetiga qadar o'lchandi;
- 3) QSning kengligini preaural helix (c) asosi bilan-postaurale, helix lateral qirrasi (d)gacha bo'lgan ortasidagi masofa aniqlandi;
- 4) QS lobulening kengligi lobulening medial qismidan (e) uning lateral qismigacha (f) o'lchandi.




1-rasm. QSni ventral tomondan antropometrik o'lchash. (a-b -QS uzunligi, cd- QS kengligi, ef -quloq lobulening kengligi). QS o'lchamini dorsal tomondan o'lchash (2-rasm):

Sefaloaurikulyar masofa - QS bilan processus mastoideus orasidagi masofa:

- a) yuqori - helix cho'qqisining lateral nuqtasidan processus mastoideusning yuqori qismigacha bo'lgan masofa;

- b) o'rtta - qulqoq o'rtasining lateral nuqtasi bilan processus mastoideusning o'rtasigacha bo'lgan masofa;
- c) pastki - qulqoq lobulesi lateral nuqtasi bilan processus mastoideusning pastki qismigacha bo'lgan orasidagi masofa.



2-rasm. QSni dorsal tomondan antropometrik o'lchash. Yuqori (a), o'rtta (b) va pastki (c) sefaloaurikulyar masofani aniqlash.

QS orttirilgan nuqsonlari va deformatsiyasi bo'lgan 18 bemorda antropometrik o'lchovlar operatsiyadan oldin va keyin o'tkazildi. Antropometrik tadqiqot ma'lumotlari bizga QS nuqsonining hajmini aniqlash va kerakli rekonstruksiya usulini tanlash imkonini berdi. Jarrohlikdan oldin va keyin jarohatlangan va sog'lom QSni antropometrik tadqiqotlar natijalarini taqqoslab, biz amalga oshirilgan jarrohlik aralashuvlarning samaradorligini baholadik. Operatsiyadan oldin va keyin har bir bemorning antropometrik o'lchovlari maxsus jadvalga kiritdik (3 va 4-jadvallar).

Bemor M, 23 yoshda aurikulaning ventral tomonidan antropometrik o'lchovlar

	operatsiyadan oldin			operatsiyadan keyin		
	sog'lom qulqoq	ta'sirlangan qulqoq	farg'	sog'lom qulqoq	ta'sirlangan qulqoq	Farg'
QS uzunligi (sm)	6.1	4.0	2.1	6.1	6.0	0.1
QS kengligi (sm)	3.8	2.0	1.8	3.8	3.6	0.2
Lobule kengligi	2.0	2.0	0,0	2.0	2.0	0,0

4-jadval

3,28 yoshli bemorda aurikulaning dorsal tomonidan antropometrik o'lchovlar

	operatsiyadan oldin			operatsiyadan keyin		
	sog'lom qulqoq	ta'sirlangan qulqoq	farg'	sog'lom qulqoq	ta'sirlangan qulqoq	Farg'
Yuqori SAM	1.6	1.0	0,6	1.6	1.4	0.2
O'rtacha (sm)	2.0	1.7	0.3	2.0	2.9	0.1
Pastki (sm)	1.7	1.7	0	1.7	1.7	0

SAM - sefaloaurikulvar masofa.

Bemor M, 23 yoshda aurikulaning ventral tomonidan antropometrik o'lchovlar operatsiyadan oldin operatsiyadan keyin
 sog'lom qulqoq ta'sirlangan qulqoq farq' sog'lom qulqoq ta'sirlangan qulqoq
 Farq'

QS uzunligi (sm)	6.1	4.0	2.1	6.1	6.0	0.1
QS kengligi (sm)	3.8	2.0	1.8	3.8	3.6	0.2
Lobule kengligi (sm)	2.0	2.0	0,0	2.0	2.0	0,0

4-jadval

3,28 yoshli bemorda aurikulaning dorsal tomonidan antropometrik o'lchovlar operatsiyadan oldin operatsiyadan keyin

sog'lom qulqoq ta'sirlangan qulqoq farq sog'lom qulqoq ta'sirlangan qulqoq

Farq

Yuqori SAM (sm) 1.6 1.0 0,6 1.6 1.4 0.2

O'rtacha (sm) 2.0 1.7 0.3 2.0 2.9 0.1

Pastki (sm) 1.7 1.7 0 1.7 1.7 0

SAM - sefalaurikulyar masofa.

Dopplerografiya

Dopplerografiya qon oqimining chiziqli tezligini va temporal sohaning tomirlarida o'tkazuvchanligini aniqlash uchun noinvaziv qo'shimcha usullardan biridir. Biz asosan yuzaki temporal arteriya va uning tarmoqlari qon oqimini hamda lokalizatsiyasini aniqladik. Ultratovush Dopplerografiyasi uchun eng past chastotali 8 dan 10 MGts gacha bo'lgan datchik ishlatdik. Operatsiyadan oldin va operatsiyadan keyingi bir necha kun ichida Dopplerografiya o'tkazildi. Dopplerografiya Vingmed (Yaponiya) ultratovush apparati va Sonotrax MSIR-14474-V1.2 (2008) Germaniya va Xitoydan portativ Doppler yordamida amalga oshirildi (5-rasm).

Biz temporal fastsiya laxtagiga ehtiyoji bo'lgan 9 bemorga Doppler tekshiruvini o'tkazdik. Buning uchun biz Arteria temporalis superficialis bo'yicha magistral qon oqimini aniqladik, bu laxtakning qon tomirli oyoqchasi.



5-rasm. Dopplerografiya. a - Dopplerografiya qilish tartibi; Monitordagi dopplerografik rasm; c - portativ doppler qurilmasi.

Foto hujjatlар

Rekonstruktiv, plastik va estetik jarrohlikda foto hujjatlari juda muhim va zarur element hisoblanadi. Foto hujjatlardan foydalanib, biz QS nuqsonlarining xarakteri, turi va joylashishini baholadik. Fotosuratlar rekonstruktiv operatsiyalar natijalari bilan taqqoslandi va retrospektiv tahlil qilindi. Rasmlar raqamli kamera yordamida olindi.